

ÖYIN -MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDA YETAKCHI FAOLIYAT SIFATIDA

Azamova Sitora Ayonovna

SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Meyliyeva Sevinch

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

maktabgacha ta'lim yo'nalishi I-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyat turi hisoblangan turli o'yinlar, kichik va katta bog'cha yoshidagi bolalar o'ynaydigan o'yinlar, o'yinlarning bolalar dunyoqarashi va tafakkurining shakllanishi hamda rivojlanishidagi ahamiyati, bolaning tasavvur etish xarakteriga ko'ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish to'g'risida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *o'yin, nutq, qoida, harakat, ijtimoiy, ta'sir, munosabat, harakatli o'yin, didaktik o'yinlar, qoidali o'yinlar.*

Vygotskiy fikricha, o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy va intellektual rivojlanishida asosiy vositadir. O'yin jarayonida bolalar kattalarning ijtimoiy rollarini o'zlashtiradilar, atrof-muhitni o'rganadilar va qiziqishlarini rivojlantiradilar. U o'yinni bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytiruvchi vosita deb hisoblagan, ya'ni o'yin orqali bolalar hali mustaqil uddalay olmaydigan faoliyat turlariga qadam tashlaydilar. Elkonin bolalarning psixologik rivojlanishida o'yin faoliyatini yetakchi omil deb ko'rsatadi. Uning fikricha, o'yin ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtirish va shaxsiy qobiliyatlarni shakllantirish uchun muhimdir. U bolalar o'yinini rolli o'yin deb ta'riflagan va bu turdagi o'yin orqali bola jamiyatning qoidalarini, rollarini va normalarini o'rganadi. Piaget o'yinni bola intellektual rivojlanishining muhim qismi sifatida talqin qilgan. U o'yin jarayonini bola bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash vositasi deb

hisoblagan. Piagetning nazariyasiga ko'ra, bolalar o'yin orqali yangi tajribalar orttirib, o'z bilimlarini kengaytiradilar. Freud o'yin bolalarning ichki his-tuyg'ulari va psixologik ehtiyojlarini ifodalash vositasi ekanini ta'kidlagan. O'yin orqali bola stressdan qutuladi va o'z his-tuyg'ularini boshqarishga o'rganadi. Groos bolalarning o'yinini biologik ehtiyojlarga asoslangan faoliyat deb hisoblagan. U o'yinni bolalar uchun hayotga tayyorgarlik vazifasini bajaruvchi jarayon sifatida ko'radi. Yuqoridagi olimlarning fikrlariga ko'ra, o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, bilim olishi va ijtimoiylashuvi uchun eng muhim faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, maktabgacha ta'limda o'yin faoliyatiga alohida e'tibor qaratish zarur. O'yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. O'yin bilan ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik bola ulg'aygan sari o'zgarib boradi. Kichik guruhda o'yin ta'lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg'ulotlarda ta'limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o'zlarida maktabdagi o'qishga ishtiyoq uyg'onib qoladi. Ammo bolalar uchun o'yinning qadri yo'qolmaydi, balki mazmuni o'zgaradi. Endi bolalarni ko'proq fikriy faollikni talab etuvchi o'yinlar, sport tarzidagi (musobaqa jihatlari bor) o'yinlar qiziqтира boshlaydi. O'yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o'yinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A.P. Usova shunday degan edi: «Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish — ulami to'g'ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki ovz hayoti bilan yashaydi». Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechinmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi. Bolalarning o'zi yaratgan o'yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning g'oyasi, mazmuni, o'yin harakatlari, rollar, o'yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir. Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o'matadi, onasi, bemor,

shifokoi xullas hamina-haiiimaning o'rniga o'zi gapiradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi. O'yin rivojlanishda nuqsoni bor bolalarning asosiy faoliyatlaridan hisoblanadi. O'yin doim haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi. O'yin ma'lum maqsadga ko'ra yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyliigi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida bolada o'quv faoliyati rivojlanadi. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatini rivojlantirishga ahamiyat berishimiz kerak. Birga o'ynovchilar soni ko'p bovlmasa-da, bolalar qiziqib o'ynaydilar. Bu davrga kelib bir-birlariga baho berish umumiy talabi yuzaga keladi. Bu bosqichda tarbiyachi bolalarning o'yinda birlashishlarining axloqiy asosini yuzaga keltirishi, ularda o'zaro yordam, o'rtoqlik, do'stlik munosabatlarini shakllantirishi lozim. Bunday birlashishlar qisqa muddatli bo'ladi. Bu davrga kelib bolalardan kimning qaysi o'yinga qiziqishi aniq bo'la boshlaydi, bir xil bolalar didaktik o'yinga qiziqsalar, ikkinchilari harakatli o'yinni yoqtiradilar, uchinchilariga ijodiy o'yinlar ma'qulroq bo'ladi va h.k. Tarbiyachining vazifasi bolalarni u yoki bu o'yin bilan uzoqroq o'ynashga o'rgatishdir. Uchinchi bosqichda o'ynovchi bolalar guruhi bir-biriga do'stona munosabat va o'zaro yoqtirish orqali birlashadilar. Bolalarning o'yinda birlashishlari bir necha bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich bolalarning «yonma-yon» o'yinining shakllanib borishidir. Bu ilk yoshli va kichik guruh bolalariga xosdir. Bunday o'yinda bolalar o'rtog'ining o'yiniga qiziqish bilan qaraydilar, birga o'ynab, «yonma-yon» o'tirganlaridan xursand bo'ladilar. Bu yoshdagi bolalarning o'yini kattalar rahbarligida ularning xulqiga ta'sir etish orqali tashkil etiladi. Ikkinchi bosqichda bolalar o'yin orqali mexanik ravishda birlasha boshlaydilar. O'yin bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasidir. O'yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, malaka va ko'nikmalari harakat usullarini, axloq normalari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar. O'yinda bolaning o'z tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi. mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini

o,,ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muamolardan biridir .Maktabgacha yoshdagi bolalar o,,yin faoliyati bilan birga ta"limiy mashg,,ulotlarda ham ishtirok etadilar.

XULOSA Yuqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining o,,rnini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. SHunday ekan, o'yin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi o,,yin mazmuniga ko'proq bog'liqdir. CHunki bolaning xatti-harkati qanchalik ihcham va umumlashgan Bo'lsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga o,,tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini to,,g,,ri ifodalashga intiladi. Tadqiqotchi A.V.Yarmolenko yarim yoshlik godaklarda jozibali narsalarning o'zaro qiyosiy tasnifini tadqiq qilgan. Muallif olgan ma'lumotlarga qaraganda godak beqisob jismlar orasida insonni (katta yoshli odamlarni) tobora aniqroq, ravshanroq ajrata boshlagan. Shu bilan birga qarakatsiz koruv qozqatuvchisiga diqqatni toplash 26 sekunddan 37 sekundgacha qarakat qilmayotgan odamga bolaning tikilishi, 34 sekunddan 38 sekundgacha, xarakatdagi koruv qozqatuvchisiga qarashi 41 sekunddan 78 sekundgacha.

FOYDALANILGAN ADABIYITLAR:

- 1.Qodirova R.M. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta- maxsus ta'lim muassasalari uchun darslik. T.: "Istiqlol", 2006 y.
2. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. УЧЕБНЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ// Вестник науки и образования, 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38.
3. Nishonova Z.T., Alimova G.K. " Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi ".T:2005 yil.

4. M.G.Davlatshen va boshqalar " Yosh davrlar va pedagogik psixologiya".T : 2004 yil
5. E.G. Goziyev " Ontogenez psixologiyasi " .T : 2010 yil
6. Dusmuxamedova Sh.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Shu.T., Alimboeva Sh.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya .
7. Omonova.M&Tojiyeva.D(2024) Psixologik Xizmatlarning INSON HAYOTIDA
IMONOVA.M.&.MUHAMMADOVA,D TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT.
IMONOVA M.B.Oila tinchligi-jamiyat farovonligi asosi.
- 8.Vohidov.M.V"Maktabgacha tarbiya psixologiyasi.T.,O'qituvchi",1994.y.b34-40.
- 9.Vohidov."Bolalar psixologiyasi"Toshkent.1992.y